

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
1. Сейтов Азамат ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
2. Xolbekov Abdug‘ani ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
4. Abduraxmonova Manzura KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
5. G‘afforova Mavlyuda SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
6. Seitova Zuhra AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
7. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
8. Kamalova Khatira QARAQALPAQ XALQI HAYAL-QIZLARINI JAMIETLIK-SIYASII BELSENDILIGI.....	60
9. Якубов Ильдар ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
10. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
11. Hojiyev Zavqiddin IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
12. Axmedova Feruza TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
13. Akramov Xusan ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
14. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSII JIHA TLARI.....	112
15. Raximova Shaxnoza AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
16. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIIY USULLARINI JORIIY ETISH.....	131

17. Kamilov Farxod INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
18. Razzakova Nargis MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
19. Axmedova Ra'no O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
20. Мирзаева Шахноза ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
21. Вахидова София ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
22. Bozorova O'limaxon IJTIMOIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
23. Ruyiddinova Aisha INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
24. Tursunboyev Jahongir SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
25. Raximbayeva Oftobxon ZAMONAVIY RAXBARLARDA KASBIY VA IJTIMOY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
26. Sharopov Sadriddin INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
27. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
28. Mamaziyaeva Nargiza O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

G'afforova Mavlyuda,

Ўзбекистон Журналистика ва оммавий kommunikatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlari kafedrasida dotsenti vb.
Sotsiologiya fanlari doktori (DSc)

SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O'RNI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18354907>

ANNOTATSIYA

Ma'lumki, inson siyosatchi bo'lib tug'ilmaydi. Davlat yoki jamiyat undagi xususiyatlarni tarbiyalab, so'ngra fuqaro va shaxs sifatida tan oladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi ijtimoiylashuv jarayonida yuzaga kelsa, insonni siyosatning ob'ekti va sub'ekti sifatida shakllanishi siyosiy ijtimoiylashuv jarayonida ro'y beradi. Hozirgi davrda imijmeykerga ehtiyoj bor ekan, bunday kasb egalari qanday shaxsiy, insoniy xislatlarga ega bo'lishi, ular professional xislatlarni qaerda o'rganishadi, degan savol tug'iladi. Shu jihatdan, mazkur maqolada xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqlilik masalalariga, ayollarning siyosiy partiyalar hamda jamiyat siyosiy hayotida tutgan o'rniga alohida to'xtalib o'tilgan.

Калит сўзлар: fuqaro, shaxs, kasb, siyosatchi, shaxsiy, insoniy, siyosiy partiyalar, xotin-qizlar, imij.

Гаффорова Мавлюда,

и.о. доцента кафедры Социально-гуманитарных наук Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана,
доктор социологических наук (DSc)

ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОГО ЛИДЕРА И РОЛЬ ИМИДЖА В ЭТОМ ПРОЦЕССЕ

АННОТАЦИЯ

Как известно, человек не рождается политиком. Государство или общество воспитывают в нем черты, а затем признают его как гражданина и как личность. Если формирование человека как личности происходит в процессе социализации, то формирование человека как объекта и субъекта политики происходит в процессе политической социализации. Сегодня, когда есть потребность в имиджмейкере, возникает вопрос, какими личными и человеческими качествами должны обладать такие специалисты, и где они узнают о своих профессиональных качествах. В этой статье особое внимание уделяется вопросам равноправия женщин и мужчин, а также роли женщин в политической жизни партий и общества.

Ключевые слова: гражданин, личность, профессия, политик, частный, человеческий, политические партии, женщины, образ.

Gafforova Mavlyuda,

Associate Professor,

Department of Social Sciences and Humanities, University
journalism and mass communications of Uzbekistan,

Doctor of Sociology (DSc)

THE FORMATION OF A POLITICAL LEADER AND THE ROLE OF IMAGE IN THIS PROCESS

ABSTRACT

As you know, a person is not born a politician. The state or society cultivates traits in it, and then recognizes it as a citizen and as a person. If the formation of a person as a person occurs in the process of socialization, then the formation of a person as an object and subject of politics occurs in the process of political socialization. Today, when there is a need for an image maker, the question arises of what personal and human qualities such people should have, and where they learn about their professional qualities. This article focuses on issues of equality between women and men, as well as the role of women in the political life of parties and society.

Key words: citizen, personality, profession, politician, private, human, political parties, women, image.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida O‘zbekiston jamiyatining jadal transformatsiyalashuvi hamda ijtimoiylashuvida siyosiy sotsiologik jihatdan o‘zgarishlar mamlakatimiz xotin-qizlarining hozirgi zamon ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy hayotida tobora faolroq ishtirok etishini ta’minlamoqda. Bugungi kunda mamlakatdagi siyosiy jarayonlarni ayollarning ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xotin-qizlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirish eng avvalo, oliy va mahalliy davlat hokimiyati organlariga saylovlarda qatnashish orqali ro‘yobga chiqariladi.

So‘nggi yillarda ijtimoiy fanlarda kishilarning nutqi ichki va tashqi qiyofalari orqali bir-birlariga ta’sir ko‘rsatish mexanizmini egallashda yordam beradigan yangi soha – imijeologiya vujudga keldi.

Imij so‘zi inglizchada inson qiyofasi, obrazi ma’nosini anglatadi. Hammaga ham tabiat tomonidan chiroq, o‘ziga maftun etadigan qiyofa in’om etilmagan. Lekin ko‘plab kishilar bunday simpatiya, maftunkor qiyofani o‘zlarining qobiliyati bilan qo‘lga kiritadilar.

Jamiyat ijtimoiylashuvida yangi qadriyatlar shakllandi, insonlar o‘zini namoyon qilishi, jamoatchilik fikriga pragmatik shaxslar ta’siri, siyosiy-sotsiologik nuqtai nazardan qaraganda, o‘ziga xos va mos “identiklik” mental xususiyatlarni o‘zida aks ettirmoqda. Axborotlashgan jamiyat ma’lumotlarni transformatsiya qilishda siyosiy yetakchilarni yuzaga keltiradi. Saylov jarayonlarida Yevropa sotsiologlari jamoatchilik fikrini o‘rganish asnosida saylovchi tomonidan:

- birinchi navbatda nomzodning tashqi ko‘rinishiga,
- ikkinchi o‘rinda professional kasbi va qobiliyatiga,
- uchinchi o‘rinda esa siyosiy mavqeiga e’tibor qilinishini ta’kidlaydilar.

Imijmeyking – inglizcha so‘z bo‘lib, imij – qiyofa, ko‘rinish, meyking–yasash deganidir. Shunday ekan, nomzodning o‘zi emas, imiji muhimroq, degan tushuncha paydo bo‘ladi. Shunday qilib, imijmeyking siyosiy PR asosiy qismining bir bo‘lagiga aylandi.

METODOLOGIYA

E.V.Egorova-Gantman va O.I.Gardeeva imijning ramziy yuklamasiga e’tibor qaratadilar: “Imij – bu subyektning o‘zi va kommunikatsiya vositalari tomonidan doimiy ravishda takrorlanadigan tasvir: siyosiy yetakchining siyosiy, dunyoqarash... elektorat afzalliklarida aks etuvchi fazilatlar” [1].

K.S.Stanislavskiy imijning bixevioral, ijtimoiy-psixologik jihatlariga e'tibor qaratadi. Masalan, uning fikricha, imij: "... jamoaviy muloqotga kiritilgan odamning xulq-atvori, tafakkuri va xatti-harakatlari. Imijga ega bo'lish – rol faoliyatidagi inson xulq-atvorining o'zgarishidir" [2].

J.Yager, ijtimoiy-psixologik xususiyatlardan tashqari, o'z ta'rifiga shaxsning tashqi ma'lumotlarini kiritadi: "Imij sizning tashqi ko'rinishingiz, nutqingiz, xulq-atvoringiz va hatto odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatingizning barcha xususiyatlaridan iborat" [3].

G.M.Andreevaning klassik bo'lib qolgan ta'rifi, aftidan, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida imijning mohiyatini xolisona aks ettiradi: "Imej (muharrir G.M.Andreeva) – idrok qilish burchagi obyektning faqat ma'lum tomonlari qasddan o'zgartirilgan va urg'u berilgan holda qabul qilinadigan narsaning o'ziga xos "tasviri". Shuning uchun, obyekt yoki hodisaning xayoliy tasvirlanishiga erishiladi. Imij va haqiqiy obyekt o'rtasida "ishonchlilik bo'shlig'i" mavjud, chunki imij tasvirning ranglarini qalinlashtiradi va shu bilan ilhom mexanizmi vazifasini bajaradi. Imij hissiy apellyatsiyalarni yoqishga asoslangan" [4].

ASOSIY QISM

Keyingi yillarda mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlar qiyofasidagi o'zgarishlar tendensiyalarini yuksaltirish maqsadida Oliy Majlis quyi palatasida 24 (16%), Senatda 10 (17%) foiz xotin-qizlar faoliyat olib bormoqda. Xalq deputatlari hududiy Kengashlar,

Davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin opa-singillarimiz rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesinde bu ko'rsatkich 23,5%, tuman va shahar kengashlarida 22 % ni tashkil etadi. Davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin opa-singillarimiz rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda. Xotin-qizlarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida 82 foizdan ziyodni, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at sohalarida 72 foizni, qishloq xo'jaligida 45 foizdan ortig'ini, sanoatda 38 foizni, qurilish sohasida 8 foizni tashkil etmoqda [5].

O'zbekistonda xotin-qizlarga bo'lgan e'tiborning ijobiy natijasi ularning jamiyatdagi faol ishtiroki orqali kuzatiladi. Bu borada yurtimizda ayollarning faolligi borasidagi ma'lumotlar tahlili natijalaridan kelib chiqqan holda BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish: "Qaerdaki siyosiy va ijtimoiy hayotda xotin-qizlar faol ishtirok etayotgan bo'lsa, o'sha joyda iqtisodiyot o'smoqda, barqarorlik mustahkamlanmoqda va fuqarolarning farovonligi yuksalmoqda" [6], deb ta'kidladi. Lekin, bugungi kun talabi mamlakatda gender tenglikni ta'minlash va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitini yaxshilash, xotin-qizlarni mamlakatimizda olib borilayotgan islohot va yangilanishlar jarayonida ishtirokini yanada oshirish, davlat va jamiyat, parlament boshqaruvida ayollar roli va imkoniyatlarini kengaytirish, 2019-yil 22-dekabrda bo'lib o'tadigan saylovda deputatlikka munosib siyosiy yetakchi nomzodlarni tanlash va ularni deputatlikka tayyorlash ishlariga alohida e'tibor qaratishdan iborat.

Siyosiy yetakchi imijini shakllantirish texnologiyalari O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, zamonaviy jamiyatda faol xotin-qizlarning sotsial qiyofasida siyosiy yetakchilik imijini shakllantirishda ob'ektiv va sub'ektiv (davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan ijtimoiy sherikchilikni rivojlantirish) omillarni turmush tarzidagi siyosiy faoliyati orqali tavsiflashning o'ziga xos mental xususiyati modeli yaratilgan. Imij – sotsiologik, siyosiy - huquqiy, psixologik va boshqa jihatlarini o'zida aks ettiradigan ko'p tarmoqli kategoriya. Siyosiy yetakchilik imijni to'liq yaratish uchun sub'ektiv omillarning o'zi yetarli emas, chunki imijning muvaffaqiyati faqat insonning o'zigagina bog'liq bo'lmagan holda sotsiumda sotsial munosabatlarga kirishish, buning uchun imijda shaxsning mantiqiylik, analiz, qiyosiy tahlil hamda siyosiy yetakchi imijga tizimli-metodik yondashish vositalari orqali sifatli ko'rsatkichlarga erishish zarur.

O'zbekistonda boshqaruv, ayniqsa, siyosiy boshqaruv sohasidagi rahbarlardan davr zamonaviy siyosiy texnologiyalardan xabardor bo'lish, ularni amaliyotda qo'llashni talab qilmoqda. Ana shunday siyosiy texnologiyalardan biri imijni shakllantirish texnologiyasidir, chunki davlatni samarali boshqarish uchun rahbar fuqarolar hurmatini qozonishi, siyosiy kuchlarning saylovchilar xayrixohligiga erishishi, saylovlarda g'alaba qozonishi, nizoli vaziyatdan tezda chiqish uchun raqiblarga ta'sir ko'rsatishi, omma ongida muayyan siyosiy kuchlarning jozibali qiyofasini qaror toptirishi

“Imijmeyker – shaxsning sotsial qiyofasi, aniq sotsium, stratifikatsiya, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt, davlat va nodavlat tashkilotlar, hudud, geografik identiklik va davlatlarning nufuzini yaratish bo‘yicha mutaxassis” muhim shartlardan hisoblanadi.

Dastlab “imij” so‘zi o‘rniga “tashqi ko‘rinish” (look) so‘zi qo‘llangan, so‘ngra “imij” so‘zi keng qo‘llana boshlagan.

“Imijmeyker - shaxsning sotsial qiyofasi, aniq sotsium, stratifikatsiya, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt, davlat va nodavlat tashkilotlar, hudud, geografik identiklik va davlatlarning nufuzini yaratish bo‘yicha mutaxassis” [7].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisida “Yurtimizda o‘zining aql-zakovati, chuqur bilimi, katta hayotiy tajribasi, fidokorona mehnati, insoniy fazilatlarini bilan hammaga o‘rnak va namuna bo‘lib kelayotgan opa-singillarimiz ko‘plab topiladi. Bu yil Oliy Majlis va mahalliy Kengashlarga bo‘lib o‘tadigan saylovlarda ana shunday siyosiy saviyasi yetuk, mehnatkash va oqila ayollarimiz o‘z salohiyatini namoyon etib, deputat va senator bo‘lib saylansalar, men ishonaman, bundan davlatimiz ham, jamiyatimiz ham faqat katta naf ko‘radi” [8], deb imijga sotsiologik yondashuvning aynan Personifikatsiya insondagi ommaga xos holatlar, talablar va stereotipik qurilmalarni aniq obrazlarga muvofiq kelgan kishilarga proektsiyalash ehtiyoji va mahorati ta‘rifidan kelib chiqib, jamiyatimizdagi xotin-qizlarning ijtimoiy imijini shakllantirib berdi. Psixologlar siyosiy yetakchi shaxslar bilan shug‘ullansalar, sotsiologlar kuzatuv metodlari orqali guruhlarini pozitiv shakllantiradi.

Imijmeyker siyosatga endi kirib kelayotgan siyosatchi bilan ishlayotganda uning tashqi ko‘rinishiga ham alohida ahamiyat berishga to‘g‘ri keladi. U siyosatchining kiyinishi, nutqining ravonligiga katta e‘tibor berib, mikrafon va videokamera bilan ishlashni o‘rgatadi. Bularning barchasi imijni shakllantirishning eng boshlang‘ich bosqichidir. Jamoatchilik fikri bilan ishlash shunisi bilan farq qiladiki, masalan, siyosatchini to‘liq hajmda, yaxlit ma‘lumot sifatida beraolmaymiz, biz uni uzatish kanaliga mos ravishda transformatsiya qilish kerak. (TV uchun boshqacha, radio uchun boshqacha, gazeta uchun uchinchi imkoniyat mavjud). Shuning uchun axborotlarning muayyan qismi bilan chegaralanamiz. Amaliy jihatdan chegarasiz bo‘lgan xarakteristikadan saylovchilar uchun muhim qismni tanlash orqali imij shakllanadi.

Prezidentimiz tomonidan ayollarning jamiyatdagi sotsial mobilligini oshirish borasidagi sa‘y-harakatlari natijasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Natijada xotin-qizlarning siyosiy jarayonlarda, ya‘ni, saylov jarayonlaridagi imiji yanada mustahkamlanmoqda.

Imijmeyker insonning ma‘nan boyligi, siyratining pokligini yuz-ko‘zlarida, nutqi va xatti-harakati orqali ifoda qilib, namoyon etishga o‘rgatishi, yordam berishi kerak. Ba‘zan imijmeyker bilan “jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari orasida farq yo‘q, deguvchilar ham topiladi.

Pablik rileyshnz – “jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari ijtimoiy axborotlarni boshqarishning maxsus tizimi, maqsadi ob‘ekt manfaatdor bo‘lgan ijtimoiy qatlamlarni ob‘ektga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish bilan bog‘liq axborotni tayyorlash va uni “yetkazish” bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi [9].

“Jamoatchilik fikri bilan aloqalar texnologiyasi” imijmeyking bilan o‘zaro bog‘langan, ammo u imijni yaratmaydi, balki shakllantirishda yordam beradi. “Imijmeyking kerakli material”ni yaratish jarayoni bo‘lsa, PR – “materialni tarqatish kanallarini boshqarishdir” [10].

Sharq mutafakkirlari asarlarida ham inson maftunkorligi, botiniy va zohiriy go‘zalligi haqida gap boradi. Sharq allomasi Abu Nasr Forobiy fozil shahar imomining o‘n ikki xislatdan iborat ideal imij modelini yaratibgina qolmay, “ideal, axloqli insonning abstrakt obrazini yaratish bilan, tarbiya sohasida shu obrazni namuna qilib olish zarur, degan fikrni olg‘a suradi” [11].

Har qanday sohadagi mutaxassisning yetukligini quyidagi to‘rtta mezon belgilaydi:

- kasbiy kompetentligi;
- kasbiy qobiliyati;
- professional fikr yuritishi;
- kasbiy motivatsiyasi;
- kasbiy kompetentligi;
- kasbiy qobiliyati;

- professional fikr yuritishi.
- kasbiy motivatsiyasi;

Imijmeyker:

- muloqotga kirishish, insonlarga qo‘shilib ketish va o‘zini namoyon qilish qobiliyati;
- insonning ichki holatini his qilishi va ilg‘ab olish, uning ichki dunyosini ko‘ra olish qobiliyati;
- insonning ehtimol qilish va uning kayfiyatiga xos obrazini yaratish, uning bu obrazga kirish hamda holatini anglay olishi xislati;
- insonlarning qalb va ruhiy holatiga ta‘sir ko‘rsata olish;
- insonlarni o‘ziga jalb etish aurasi;
- imijmeykerning mehnati san‘at darajasida bo‘lgani sababli unda ichki erkinlik, ijodkorlik va tasavvur qilish qobiliyati kuchli bo‘lishi kerak;
- qat‘iy irodaga ega bo‘lish: sabrlilik, chidam va stressga chidamlilik xususiyatlariga ega bo‘lishi kerak [12].

Imij bugungi kunning ixtirosi emas. Sharqda bu so‘zni ifodalovchi “siyrat”, “tasavvur”, “siymo”, “timsol”, “obro‘”, “nufuz” tushunchalari mavjud bo‘lib, bunda insonning nufuzi uning faqatgina tashqi ko‘rinishi bilan emas, balki so‘z va amal birligi, insoniy fazilatlar, axloqiy sifatlar bilan o‘lchangan. Jumladan, sotsiologiya fanlari doktori M.B.Bekmuradov tomonidan o‘tiladigan “Farosat ilmi” o‘quv kursi ham deputatlikka nomzod xotin-qizlarning imijini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat ravnaqi, amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli taqdiri ko‘p jihatdan siyosiy elita va siyosiy yetakchi samaradorligiga bog‘liqligini inobatga olgan holda, siyosiy yetakchining zamonaviy qiyofasi, uni shakllantirish va unda imijmeykerning rolini belgilash ekanligini inobatga olish maqsadga muvofiq.

Mazkur termin bizga ingliz tilidan kirib kelgan (image – “siymo”, “tasvir”, “tasavvur”, “o‘xshashlik”, “metafora”), aslida ildizi lotin tilidan olingan (imago – tasavvur, ko‘rinish yoki imitary – taqlid qilish).

Hokimiyat aloqalari va munosabatlari tizimida kuchli ta‘sir va taassurot qoldirishni maqsadli yo‘naltirish omili sifatida imijni shakllantirish zaruriyati jamiyat tabaqalashuvi jarayonida paydo bo‘ldi. Hokimiyat instituti ajralib chiqishi uchun insonlarga ta‘sir ko‘rsatishning ma‘lum mexanizmlarini rivojlantirish va yuqori martabali shaxslarning, odamlarning oddiy obrazdan farqliroq siyosini shakllantirish talab etildi. Shu bilan birga shaxsni ulug‘lash uchun xalqda zarur taassurotlarni kuchaytirish talabi maxsus yordamchilarga ehtiyojni ham juda oshirdi. Bunday taassurot qoldirish san‘ati Qadimiy Misr va Qadimiy Rimda keng yoyilgan. Yangi tarix davrida hukmdor o‘z mulozimlari bilan o‘zaro muloqotiga oid ma‘lum marosimlarni ishlab chiquvchi va ularni amalga oshiruvchi maxsus lavozimlarga xodimlar jalb qilgan.

Siyosiy fanlarga “imij” tushunchasi biznes sohasidan kirib keldi, ushbu sohada undan reklama qilinayotgan mahsulotni toifalash uchun foydalanilgan; zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan mazkur termini saylovoldi targ‘ibot kompaniyalarini olib borishda ijtimoiy harakatlar va siyosiy yetakchilarni toifalash uchun foydalanildi. “Imij” deganda shaxsning boshqa insonlar tomonidan idrok etishga xizmat qiladigan xususiyatlarini jamlovchi obraz tushuniladi.

Siyosatda shaxsiy imijning asosiy funksiyalari quyidagilar:

- -ekzistensial (odamlarning shaxsiy, guruh va ommaviy ongida siyosatdagi sub‘ektga oid taassurotni yuzaga keltirish);
- -ijtimoiy-madaniy (imijni ma‘lum toifalar bilan identifikatsiya (o‘xshatish) funksiyasi);
- -imiji shakllanayotgan shaxsning ichki (jismoniy va ruhiy) xususiyatlarini mujassamlantirish;
- attityud (ijtimoiy ko‘rsatmani shakllantirish);
- munosabatni aniqlovchi.

Siyosiy imij shakllantirishning uchta asosiy omili mavjud:

1. Imij sohibining insoniy jihatlari: tashqi ko‘rinishi, jozibadorligi, yoshi, sog‘lig‘i, kiyinish uslubi, harakatlari, imo-ishoralari, xarizmaning mavjud yoki mavjud emasligi, mijozi (temperamenti), xulq-atvori, qobiliyati hamda siyosiy jarayonda ishtirok etish sababiga doir

xususiyatlar. Shu bilan birga, siyosiy pozitsiya (u yoki bu partiya, harakatga aloqadorligi), saylovoldi dastur va siyosatchining faoliyati ham juda muhim.

2. Imij sohibi to'g'risida axborot olishning usul va shakllari. Shaxslararo munosabatlar kanallaridan kelgan, PR-xizmatlar va mustaqil OAVdan olingan, shuningdek, qarama-qarshi fikrlar, mish-mishlar, g'iybatlar, latifa va boshqalarni eshitganda qabul qilingan ma'lumotning siyosatchi to'g'risidagi axborotga mutanosibliigi muhim.

3. Jamiyatdagi biror aniq ijtimoiy vaziyatda elektoratning o'zini tutish xususiyatlari. Bu o'rinda, saylovchilarning etno-xususiy va mentalitet xususiyatlari, joriy ijtimoiy kutishlar, ustunlik qilayotgan kayfiyat muhim. Ma'lum lavozimga mos keluvchi nomzodning ideallashtirilgan qiyofasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, shakllantirilayotgan obraz va uning shaxsi o'rtasidagi mutanosiblik nomzodning muvaffaqiyatga erishishga oid

Elektoratda ijobiy o'zgarishlarda kutish kayfiyatini shakllantirish zarur. Imij siyosatchini fe'l-atvoriga aylanishi lozim imkoniyatlarini kuchaytirishi ham, kamaytirishi ham mumkin. Shu bilan birga, tanlov natijalari nafaqat aniq bir arbobning imiji sifatleri bilan, balki uning siyosiy imijlarning umumiy maydonidagi o'rni bilan ham belgilanadi. Partiya maqsadi nomzod maqsadiga zid bo'lmasligi shart.

Siyosiy yetakchi imijini shakllantirish texnologiyasi quyidagilarga asoslanishi kerak:

- 1) imij fenomenining mohiyatini tushunish,
- 2) siyosiy partiyaning o'ziga xosligini inobatga olish,
- 3) imij ta'sir etishi rejalashtirilgan guruhning xususiyatlarini anglash.

Butun saylov jarayonida siyosiy partiya imijini tezkor tahrir qilish imkonini beruvchi "qaytma aloqa"ga tayanish zarur. Imij targ'ibotchilari nomzod hayotini aniq bilishlari lozim. Siyosat sub'ektlarini boshqarish mumkin bo'lgan imijni yaratish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish siyosatchi va siyosiy tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Imij shaxsdan ulkanroq, kengroq bo'lishi lozim. PR-texnologiyalar beshta asosiy maqsadga:

- 1) taassurot qoldirish,
- 2) imijni kuchaytirish,
- 3) raqiblarning imijini tushirish,
- 4) nomzodni raqiblarga nisbatan ajralib turishini ta'minlash,
- 5) kontrreklamaga erishish uchun yo'naltirilgan deb hisoblanadi. Taassurot qoldirish – (pozitsionirovanie) o'zining mavjudligini bildirish, atrofdagilarga tushunarli imij yaratish va saqlab turish. Obyektda bunday faoliyatning mavjud emasligi tartibsiz, kutilmaganda shakllanadigan imij bilan qoplanadi.

XULOSA

Mustaqillik yillarida har bir sohada bo'lgani kabi xalq ongi, dunyoqarashida muayyan o'zgarishlar bo'lib, uning ijtimoiy-siyosiy faollik darajasi oshib, takomillashib bormoqda. O'tgan davr tajribasi shundan dalolat beradiki, davlat, jamiyat rivoji, xalq farovonligi, avvalambor, uning siyosiy yetakchilariga bog'liq. Dunyodagi siyosiy jarayonlarning demokratlashuvi siyosiy yetakchi bo'lishning demokratik tamoyillariga asoslanmoqda. Bunda siyosiy yetakchilikka chiqishda siyosiy yetakchining u tasavvurlari, fikri va munosabati – imij muhim omillardan biri hisoblanadi. Ammo imij bugungi kunning ixtirosi emas. Sharqda bu so'zni ifodalovchi "siyrat", "tasavvur", "siymo", "timsol", "obro'", "nufuz" tushunchalari mavjud bo'lib, bunda insonning nufuzi uning faqatgina tashqi ko'rinishi bilan emas, balki so'z va amal birligi, insoniy fazilatlar, axloqiy sifatleri bilan o'lchangan. Hozirgi kunda ham bu tushunchalar siyosiy yetakchini baholashda asosiy omil hisoblanadi. Jamiyat ravnaqi, amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli taqdiri ko'p jihatdan siyosiy elita va siyosiy yetakchi samaradorligiga bog'liqligini inobatga olgan holda, siyosiy yetakchining zamonaviy qiyofasi, uni shakllantirish va unda imijmeykerning rolini belgilash ekanligini inobatga olib, quyidagi nazariy xulosalarni ilgari surish joiz:

- Hayotda har qanday shaxs, narsa, hodisa-voqea, jarayonning imiji mavjud. Imij ob'ekti bo'lib, inson, tashkilot, xalq, davlat, shu bilan birga, davlat hayotining turli sohalari kirishi mumkin: hokimiyat, iqtisod, armiya, tashqi siyosat va h.k. Masala imijning bor-yo'qligida emas, imijning stixiyali va maxsus shakllantirishdadir. Fan-texnika taraqqiyoti, kommunikatsiya vositalarining

rivojlanishi, ommaviy-axborot vositalarining rivojlanishi imijni maxsus shakllantirish imkonini bermoqda.

- Har bir shaxs, narsa, hodisa, voqea va jarayonlarning turli jihatlarini va xususiyatlari mavjud. Ammo imijda shaxs, narsa, hodisa, voqea va jarayonlarning auditoriya uchun eng muhim va kutilayotgan jihatlarining asosiylari mujassam bo'lishi kerak.

- Imij xato, tuzatish va kuzatib o'rganishlar natijasida yaratilishi mumkin, hayot shiddati, atrofda ro'y berayotgan jarayonlar tezkorligi bunday imij yaratish yo'lida ko'p imkoniyatlarni boy berishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun zamon imijmeykerlarga bo'lgan talabni yuzaga chiqarmoqda.

- Imijmeykerlar faqat insonning suratida namoyon bo'lmagan ichki fazilatlarini, ichki go'zalligini namoyon qilishga o'rgatibgina qolmasdan, balki auditoriya tomonidan shu fazilatlarining qaysi biri eng muhim, qaysi biri eng zarur va bu xislatlarni auditoriya ongiga qanday usul va uslublar, vositalar yordamida yetkazishni biladigan mutaxassis bo'lishlari lozim.

- Imijmeykerlik kasbiga talab, ayniqsa, siyosiy sohada talab, jamiyatning demokratlashuvi, erkin saylovlar institutining joriy etilishi, saylovchilarda tanlash imkoniyatlarining vujudga kelishi bilan ortmoqda. Siyosatda ham talab va taklif qonunlari ishlamoqda.

- Agar mutaxassis faqat kishining ayrim xususiyatlarini to'g'rilab, o'zgartirib insonni o'ziga bo'lgan ishonchigina, fikrigina o'zgartirsa, bu mutaxassis imijmeyker bo'lmaydi. U tarbiyachi, pedagog vazifasini o'taydi, imijmeyker ulardan farqli ravishda insonga nisbatan fikrni, tasavvurni, munosabatni o'zgartira olishi kerak.

- Imijmeyker insonning ichki go'zalligini, fazilatlarini imijning tashqi tashkil etuvchilari - kiyinish, nutq, tana holati, qo'l xatti-harakati va mimikada namoyon etishga yordam berish bilan birga, hozirda ular uchun omma fikrini o'rganish, ommaning kutishi natijasida to'g'ri imij strategiyasini belgilash, axborot uzatish vositalarida muayyan hislatning uzatishni kommunikatsion jihatlarini bilishi muhim.

- Imijmeyker shaxsiga juda kuchli talablar qo'yiladi, bu kasb bir nechta fanlar chorrahasida bo'lganligi sababli imijmeyker psixologiyani, ayniqsa, shaxs, siyosiy va omma psixologiyasini, sotsiologiya, kiyinish va nutq madaniyati, ranglar va ularning xususiyatlarini, xalq mentalitetini, ortabiotikani bilishi, tom ma'noda, ijodkor-insonshunos bo'lmog'i lozim. Shu o'rinda uning muloqot va analitik qobiliyatga ega bo'lishi kerakligiga alohida to'xtalib o'tish joiz. Imijning manipulyativ xususiyatini inobatga olsak, imijmeyker kasb etikasini ishlab chiqishi va unda manipulyativ usullardan foydalanishni cheklashi lozim.

- O'zbekistonda birinchi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida "Siyosiy yetakchining imiji" fani o'qitilishining yo'lga qo'yilishi, "Partiyaning imiji" trening mashg'ulotlarida imijni shakllantirish jarayonlari, "Diqqatni jalb etish usullari" trening mashg'ulotlarida rahbar nutqining verbal va noverbal xususiyatlari, nutq ma'no va shakl jihatidan tuzilishi, nutqni kuchaytirish va bahs olib borish madaniyatining o'rgatilishi, psixologiya va akmeologiya fanlari, deyarli barcha fanlarni o'tilishi natijasida Akademiya professor-o'qituvchilarini tom ma'noda O'zbekistonning ilk imijmeykerlik jamoasi deb aytishimizga asos bor.

- Xalqimizda ajoyib insonlar ko'p, faqat ular o'z fazilatlarini namoyon qila olmasliklari tufayli yuksak baho ololmayotganiga guvoh bo'lamiz. Insonlar orasida o'z imijining tashqi tashkil etuvchilarini yaxshilashni, tuzatishni xohlovchilar talaygina, ammo bunday xizmatni taklif etuvchi mutaxassis, tashkilot deyarli yo'q. Oliy o'quv yurtlarida bunday mutaxassislarni tayyorlash nafaqat insonni, xalq imijini oshirishga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Егорова-Гантман Е.В. Политиками не рождаются. – М.: Центр политического консультирования «Николо М», 1993. – 142 с.
2. Ладанов И.Д. Практический менеджмент. – М.: Просвещение, 1995. – 103 с.
3. Ягер Д.Ж. Деловой этикет. Как выжить и преуспеть в мире бизнеса. – М.: Наука, 1994. – 128 с.

4. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 2007. – 363 с.
5. Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенатининг йигирманчи ялпи мажлисидаги сўзлаган нутқи.
6. Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенатининг йигирманчи ялпи мажлисидаги сўзлаган нутқи.
7. Шепель В.М.Профессия: имиджмейкер. – Ростов на Дону: Феникс, 2008. – Б.503.
8. Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенатининг йигирманчи ялпи мажлисидаги сўзлаган нутқи.
9. Общество и политика: Современные исследования, поиск О-28 концепций. Под ред.В.Ю.Большакова. – Спб., 2000. – С. 242.
10. Ольшанский В., Пеньков В.Ф. Политический консалтинг. – СПб., 2005. – С. 112.
11. www.ziyounet.uz. Абу Наср Форобийнинг фозил жамият қуриш орзуси. – Б.35.
12. Шепель В.М. Профессия: имиджмейкер. – Ростов на Дону: Феникс, 2008. – С. 112.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000